



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA MEHNATSEVARLIK KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Ashurova Nigora Narzullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, magistrant

Yadigarova Sitora

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, o‘qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan mehnatsevarlik konsepti bilan bog‘liq maqollarning lingvomadaniy tahlili keltirilgan. Ikki tilda uchraydigan mehnatsevarlik konsepti bilan bog‘liq maqollarning til va madaniyat bilan uzviy aloqador ekanligi aniq misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: til va madaniyat, maqollar, frazeologiya, ingliz va o‘zbek tillari, mehnatsevarlik konsepti.

ЛИНГВО-КУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ТРУДОЛЮБИЯ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Ашурова Нигора Нарзуллаевна

Термезский университет экономики и сервиса, магистрантка

Ядигарова Ситора

Термезский университет экономики и сервиса, преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье представлен лингвокультурологический анализ пословиц, связанных с концептом трудолюбия в английском и узбекском языках. На конкретных примерах раскрывается тесная взаимосвязь пословиц, отражающих концепт трудолюбия, с языком и культурой двух народов. Кроме того, анализируется отражение в пословицах национального мировоззрения, ценностей и отношения народа к труду. В статье в сравнительном аспекте освещаются представления английского и узбекского народов о трудолюбии, а также выявляются их общие и отличительные особенности.

Ключевые слова: язык и культура, пословицы, фразеология, английский и узбекский языки, концепт трудолюбия.

LINGUO-CULTURAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF INDUSTRIOUSNESS IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS

Ashurova Nigora Narzullayevna

Termez University of Economics and Service, Master's student

Yadigarova Sitora

Termez University of Economics and Service, Lecturer (PhD)

Abstract

This article presents a linguocultural analysis of proverbs related to the concept of diligence in the English and Uzbek languages. The study reveals, through specific examples, the close relationship between proverbs associated with diligence and the language and culture of both nations. In addition, the article analyzes how national worldview, values, and attitudes toward labor are reflected in these proverbs. The comparative analysis highlights both the common and distinctive features of the English and Uzbek peoples' perceptions of diligence.

Keywords: language and culture, proverbs, phraseology, English and Uzbek languages, concept of diligence.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy yondashuv bizga tilni nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki xalqning madaniyati, mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim tizim sifatida ham o‘rganish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, maqollar asrlar davomida shakllangan xalqning hayot tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan barqaror lingvistik birliklar sifatida ayniqsa muhimdir. Maqollarning tuzilishida aks etgan tushunchalar, xususan, mehnatsevarlik konsepti turli xalqlarning madaniy tafakkurida muhim o‘rin tutadi.

Mehnatsevarlik insonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo'lib, nafaqat individual fazilat, balki jamiyat rivojlanishining muhim mezonini hisoblanadi. Shuning uchun ingliz va o'zbek xalq maqollarida "mehnat" va "mehnatsevarlik" g'oyasi turli tasvirlar, metaforalar va lingvomadaniy kodlar orqali ifodalanadi. Ingliz va o'zbek maqollarining qiyosiy lingvomadaniy tahlili bu xalqlarning mehnatga bo'lgan munosabatidagi o'xshashlik va farqlarni, shuningdek, har bir tilga xos bo'lgan milliy-madaniy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Bunday tadqiqotlar tarjimashunoslik, kognitiv tilshunoslik va madaniyatlararo muloqot sohalarida katta ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq maqollarida "mehnatsevarlik" konseptining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilindi hamda ularning semantik maydoni, majoziy ifodasi va madaniy ma'nolari qiyosiy o'rganildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu mavzuni tadqiq qilishda o'zbek va ingliz tilshunosligi, folklori hamda maqolshunoslikka oid bir qator ilmiy manbalardan foydalanildi. Ushbu adabiyotlar maqollar va xalq og'zaki ijodining lingvomadaniy, strukturaviy va semantik jihatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. K. Samadovning "Maqollarimizning mohiyati haqida" nomli kitobi o'zbek maqollarining mazmun-mohiyatini, ularning xalq milliy mentaliteti va dunyoqarashi bilan bog'liqligini yoritib beradi. Muallif maqollarni xalqning tarixiy tajribasi va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sifatida ko'rib chiqadi. O. Madaev va T. Sobitovning "Xalq maqollari" kitobi esa xalq og'zaki adabiyotining janr xususiyatlari, strukturaviy tuzilishi va badiiy-estetik funksiyalarini tahlil qiladi. Mualliflar maqollarni folklorning muhim elementi sifatida ko'rib chiqadilar va ularning ta'limiy hamda kommunikativ qiymatini ochib beradilar [3]. Umuman olganda, ushbu adabiyotlar maqollarni, xususan, mehnatsevarlik konsepti bilan bog'liq bo'lgan maqollarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish, ularning semantik maydoni va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Tahlil va natijalar

Ingliz va o'zbek tillarida eng ko'p ishlatiladigan maqollar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

Ingliz tilida:

Speak less but do more. (Kam gapir, ko'p mehnat qil.)

The workman is known by his work. (Ishchi o'z ishi bilan mashhurdir.)

The labourer is worthy of his hire. (Mehnatkash kishi mehnatiga yarasha haqqa loyiqdir) [1].

O'zbek tilida:

Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik.

Birni birov beradi, ko'pni mehnat.

Bersang olasan, eksang o'rasan.

Yigit husni — mehnatda [4].

Mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning o'zbek va ingliz tillarida mavjudligi ikkala xalqning ham mehnatga ijobiy munosabatda ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun tilga olingan barcha maqollar kundalik hayotda keng qo'llaniladigan mavzularga tegishlidir. Agar ularning ma'no chuqurligini hisobga olsak, maqollarning ma'nolari ko'pincha o'zaro mos kelishini ko'ramiz.

Masalan, "A man of words and not of deeds is like a garden full of weeds" [1] degan ingliz maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak, bu "Faqat gapirib, mehnat qilmaydigan inson yovvoyi o'tlarga to'la bog'ga o'xshaydi" degan ma'noni anglatadi. Bu maqol mehnatni yoqtirmaydigan, lekin ko'p gapiradigan odamlarni tasvirlaydi. Biroq ingliz maqolini o'zbek tiliga tarjima qilish har doim ham amalda oson emas. Muhimi shundaki, bu maqol ikkala xalq tomonidan ham faol qo'llaniladi.

Yana bir misol sifatida inglizcha "Head cook and bottle-washer" maqolini ko'rib chiqish mumkin. Uning o'zbekcha tarjimasi "ham oshpaz, ham kosa-tovoq yuvuvchi" bo'lib, bir kishining bir nechta ishni bajarishi yoki bir nechta kasbga ega ekanligini bildiradi. Bir qarashda, bu maqol tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, insonni ko'p qirrali bo'lishga, bir nechta kasb-hunarni egallashga undaydi. Ushbu maqolga o'zbek tilida ekvivalent sifatida "Yigit kishiga qirq hunar ham oz" maqolini keltirish mumkin [2].

Ta'kidlash joizki, maqollar xalq og'zaki ijodi an'analarining mahsuli bo'lib, jamiyatning hayot tajribasi va odamlarning dunyoqarashi asosida shakllanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatsevarlik haqidagi maqollar semantik jihatdan bir-birini to'ldiradi va ikkala xalqning mehnatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Bu ikki xalq hayotida keng qo'llaniladigan mehnatsevarlik konsepti bilan bog'liq maqollar qadimgi davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan milliy an'analarni aks ettiradi va folklorning noyob

namunalari sifatida muhim o‘rin tutadi. Maqol xalqning hayot tajribasi va donoligini ifodalash uchun muhim vositadir. Ularni o‘rganish orqali ikki xalq o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash mumkin. Maqollar har bir xalq uchun katta ahamiyatga ega, chunki ular donolik va o‘rnak namunalari taqdim etadi [3].

Ingliz va o‘zbek maqollaridagi mehnatsevarlik tushunchasining lingvomadaniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy va axloqiy qadriyatlardan biri sifatida mehnat ikki xalqning dunyoqarashida markaziy o‘rinni egallaydi. Maqol tizimida mehnatsevarlik har doim ijobiy baholanadi va ijtimoiy muvaffaqiyatga olib boradigan asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, dangasalik, bekorchilik va vaqtni behuda sarflash keskin tanqid qilinadi.

Ikki til maqollarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek maqollari ko‘pincha semantik jihatdan yaqin yoki o‘xshash mazmunni ifodalaydi. Masalan, ikkala tilda ham “mehnat”, “mehnat natijasi” va “harakat orqali muvaffaqiyatga erishish” kabi g‘oyalar umumiy konseptual asosni tashkil qiladi. Biroq ifoda usuli, tasvirlar tizimi va bu g‘oyalarning metaforik tuzilishi turlicha namoyon bo‘ladi [4].

Ingliz maqollari ko‘proq pragmatik yondashuvni qo‘llashga moyil; ularning g‘oyalari sodda, aniq va hayot tajribasiga asoslangan holda ifodalanadi. Ular ko‘pincha qisqa, lo‘nda va ma‘no jihatidan sodda bo‘lib, amaliy hayot qoidalarini aks ettiradi. O‘zbek maqollari esa badiiy ifoda, tasvir, xalq donoligi va she‘riy ifoda bilan ko‘proq ajralib turadi. Ularda tabiat, hayot voqealari va xalq turmush tarzi bilan bog‘liq metaforik tasvirlardan keng foydalaniladi.

Tahlil maqollar xalqning milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar ekanligini tasdiqlaydi. Har bir maqol xalqning asrlar davomida shakllangan hayot tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun maqollar nafaqat lingvistik birliklar, balki madaniy ko‘zgu sifatida ham muhimdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarjima jarayonida maqollarning to‘liq semantik ekvivalentini topish har doim ham mumkin emas. Buning asosiy sababi maqollarning milliy va madaniy kontekstga chuqur bog‘liqligidir. Ba‘zi maqollarning so‘zma-so‘z tarjimasi ularning asl ma‘nosini to‘liq ifodalay olmaydi. Shuning uchun maqollarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy va pragmatik yondashuvlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ikkala xalqning maqollarida mehnatsevarlik tushunchasi ta‘lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq tarzda ifodalanadi. Bu maqollar nafaqat lingvistik, balki pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanligidan dalolat beradi [5].

Xulosa. Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi mehnatsevarlik konsepti bilan bog‘liq maqollarni qiyosiy lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan o‘rganish ikki xalqning madaniy tafakkuri, mentaliteti va qadriyatlar tizimini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu sohadagi tadqiqotlar kelajakda kognitiv lingvistika, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqotning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Apperson G.L. English Proverbs and Proverbial Phrases. — London, 1929. — 729 p.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsaqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq maqollari. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.
4. Ruziyeva N., Tursunov E. Comparative Study of Proverbs Expressing Diligence in English and Uzbek // International Journal of Research (IJR). — 2023. — P. 173–180.
5. Suvonqulova H. O‘zbek xalq maqollari. — Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014. — 152 b.